



6-SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR OGZAKI NUTQINI O'STIRISH METODIKASI

Xushvaqtova Iroda

Kasbi tumani 8-sonli maktab ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili darslarida o'quvchilar og'zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy asoslar, talaffuzni o'stirishga yordam beradigan mashqlar va ularning bajarilish tartibi, shuningdek nutqni o'stirishning boshqa darslar bilan integratsiya jarayonlari orqali amalga oshirishga xizmat qiladigan muhim tavsiyalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: nutq, nutqiy-lingvistik faoliyat, bog'lanishli nutq, nutqiy integratsiya

Abstract. The article discusses the tools and practical foundations that help develop students' oral speech in native language classes, the tools and programmatic implementation procedures that help develop pronunciation, and important recommendations for implementing speech development through integration processes with other lessons.

Keywords: speech, speech-linguistic activity, connected speech integratsion

Nutq - kishi faoliyatning asosiy turi, til ishlatish asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, fikrni his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etishdir. Nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim aloqa vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Biz tilni jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas rivojlantirib, boyitib kelgan ajdodlarning vorislarimiz.

O'quvchilarni tilning mavjud imkoniyatlaridan nutq jarayonida foydalanishga o'rgatish maktab ona tili ta'limi oldida turgan mas'uliyatli vazifalardan biri sanaladi. Boshlang'ich sinfning bosh maqsadi ham o'quvchilar nutqini o'stirish, masalan: eshitganlarini gapirib berish, o'qiganlarini gapirib berish, eshitganlarini tushunish va uni gapirib berish, o'qiganlarini tushunish va uni so'zlab berish, bu milliy o'quv dasturida ham, 2017-yilgi uzluksiz ona tili dasturida ham ta'kidlab aytilgan. Bizning har bir o'tayotgan mavzumiz, har bir berayotgan ma'lumotimiz o'quvchilar nutqini o'stirishga qaratilgan. Buning uchun har bir darsda mavzu bilan bogliq holda matnda uchragan so'zlarni ma'nosini izohlash uni imlosini o'rgatish, talaffuzini o'rgatish birinchi ishimiz sanaladi. Chunki bolani nutqiga so'zni biz kiritishimiz kerak. Lug'atini boyitishimiz kerak. Nutq so'z bilan ish ko'radi. Keyingi qiladigan ishimiz shunday savollar berib, o'quvchilarni biz o'rgatgan so'zni o'sha gap tarkibida qo'llashga ehtiyojini yuzaga keltirishimiz zarur. Bola shu o'rgatgan so'zlarimiz bilan gap tuzsin, yoki izohlagan so'zlarimizni go'llab turib o'qigan asari mazmunini gapirib bersin. So'zni o'quvchilar nutqiga kiritishimiz kerak, Nutqiga kiritishimiz bu gap asosida yuzaga keladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchiga shu so'zni qo'llashga majbur savollar beradi. Ana o'shandan keyin matnni gapirtirganimizda, matn tuzdirganimizda shu so'zlarni tayanch so'z qilib beramiz.



Bog'lanishli nutq ko'nikmalarini egallashga masala yechish bilan bog'liq holda olib boriladigan ishlar, ayniqsa, masala tuzishga o'rgatish mashqlari samarali ta'sir ko'rsatadi. Masala o'qib eshittirilgandan so'ng, o'quvchilar uning asosiy mazmunini eshitib idrok etishga, to'g'ri, qisqa va aniq qayta aytib berishga o'rgatiladi. Masala tuzishga o'rgatish esa mantiqiy izchil, muhokama elementlari bilan kichik hikoya tuzish imkoniyatini beradi. Bu mashq o'quvchidan faollikni va mustaqillikni talab etadi, bolaning bilish faolligi va mustaqilligini oshirish esa uning umumiy rivojlanishida va tarbiyaviy maqsadda juda muhimdir. Masala tuzish kichik hikoya tuzishdir. Masalaning hikoyadan farqi shundaki, unda nimadir noma'lum bo'lib, uni topish uchun ma'lumso 'roqqa javob berish talab etiladi. O'quvchi rasm asosida Daraxtga uchta chumchuq qo'ngan edi, yana ikkita chumchuq uchib kelib qo'ndi. Daraxtda nechta chumchuq bo'ldi masalasini tuzadi. Bu masalani yechishda o'quvchilar daraxtga qo'ngan chumchuqlar sonini bilish uchun nima qilish kerakligini o'yladilar, muhokama qiladilar. Masalani yechish uchun aniq izchilikda muhokama yuritish va tushuntirish bilan bolalar o'z fikrlarini matematika tilida aniq va bog'lanishli bayon etishga o'rganadilar. Shunday qilib, matematika darslarida o'qituvchi bolalar lug'atini boyitish, turli xil gap, bog'lanishli nutq va bayon, muhokama elementi mavjud bo'lgan hikoya tuzish ustida ishlaydi.

O'qituvchi matematika tili xususiyatlarini o'zlashtirishga ko'maklashish bilan bog'liq holda o'quvchilar tafakkurini, nutqini o'stiradi. O'qituvchi matematik mazmunga emas, balki shu mazmunni o'quvchilar nutqida to'g'ri shakllantirishiga ham e'tibor bersa, bu darslarda egallanadigan bilim haqiqiy va o'quvchilar nutqining o'sishi uchun samarali vosita bo'ladi. Fikrni aniq shakllantirishni talab qilish, masala shartini ongli takrorlatish. Mustaqil masala tuzdirish va savollar yordamida masalani yechish yo'lini tushuntirish ko'nikmasi ustida ishlash o'quvchilarda qayta hikoyalash, insho va muhokama qilish madaniyatini o'stiradi.

Ona tili darslarida og'zaki nutqni rivojlantirish ko'nikmasini shakllantirishda asosiy fanlardan biri adabiyot darsligi hisoblanadi. Badiiy adabiyotni ham ilmiy adabiyotni ham o'qish va uni tahlil qilish hamda qayta gapirib berish o'quvchidan bir nechta murakkab bosqichlardan o'tishni talab qiladi. O'quvchilar badiiy va ilmiy matnning tahlil qilish orqali nutq ustida ishlaydi. O'quvchi nutq so'zlashdan oldin bir necha bosqichlardan o'tadi. O'quvchilardan og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirish uchun bir necha asosiy psixologik mexanizmlarga asoslangan qobiliyatlarga ega bo'lish talab etiladi.

Axborot o'quvchilar tomonidan tinglovchilarga yetkazib berilayotgan vaqtda qisqa muddatli xotira aytilayotgan gapning shakliy ma'nosini saqlab turishga, uzoq muddatli xotira esa matnning asl ma'nosini anglashga xizmat qiladi. Ya'ni o'quvchilar nutqni ichki xotirasida tizimlashtirib oladi. O'quvchilar nutq so'zlayotgan paytda o'z hayolida uni tasavvur jarayoniga joylaydi va ixtiyorsiz ravishda matnning ichki nutq orqali takrorlaydi. Shu orqali yetkazilishi kerak bo'lgan axborotning katta qismini eslab qolishga erishadi. Nutq mazmunini tinglovchilarga yetkazib berish juda murakkab jarayon hisoblanib, nutq egasidan diqqatni jamlash talab etiladi.



Bolalarga "Kompyuterdan qanday foydalanish kerak", "Atrof-muhitga munosabatim" "Maktabga yo'l" mavzulari va ularga ishlangan rasmlar tavsiya etiladi. Hikoya qilish jarayonida yo'l qo'ygan xatolari va yutuqlari aniqlanadi. Bolalarning nutqini kuzatganda quyidagilar asosiy mezon sifatida olinadi:

- tavsiya etilgan matnni hikoya qilishda voqeani kattalarning yordamisiz, mustaqil bayon eta olishi;
- matn mazmunini to'liq ifodalay olishi;
- matn mazmunini bayon qilishda izchillikka rioya qilishi;
- ifoda vositalaridan foydalana olishi;
- nutqning ravonligi, tezligi;
- jumalarning grammatik jihatdan to'g'ri tuzilganligi;
- nutq madaniyatiga rioya etishi.

Til millatning noyob xazinasini bo'lib doimo og'zaki va yozma holda namoyon bo'lgan. Boy, yorqin, maroqli, nutq so'zlash har bir shaxsning madaniy va ma'naviy imkoniyatlarini ochib beradi. Tilning oliyjanob imkoniyatlari nutq orqali, nutq jarayonida ochiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova I. Ozbek tilidagi gazeta matnlarining mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi: F.fn.dis, -T.OzMU, 2008.
2. Azimova I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. / Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. III an'anaviy respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiali. - Toshkent: 2019.
3. A'lamova. M.G. Do'stxo'jayeva N. O 'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda bayonning ahamiyati. Ta'lim bo'g'inlarida ona tili oqitish mazmunini yangilash asoslari. - Toshkent: 26-27 b.
4. Baqaxonova SH. Soz yasalishi darslarini o'tishda o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish. Ta'lim jarayonida so'z boyligini oshirishning asosiy omillari. -Toshkent: O'qituvchi. - 46 b.
5. Begmatova X. Hadislar, hikmatli so'zlar va o'yinlar orqali nutq o'stirish. Ta'lim jarayonida so'z boyligini oshirishning asosiy omillari. Toshkent: O'qituvchi,1995.- 46 b.
6. Babayeva. D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). - Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. - 432 b.